

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 3753,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 33,6 ming kishiga yoki 0,9 % o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1400,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,3 %), qishloq aholisi soni 2352,9 ming kishini (62,7 %) tashkil etdi.


2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **33,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **42,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **7,7 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **11,9 mingta nikoh** va **1,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Samarqand viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida 533,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,2 %) va Urgut tumanida 487,1 ming kishini (13,0 %), aksincha eng kam aholi soni Kattaqo'rg'on shahrida 87,4 ming kishi (2,3 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Jomboy va Urgut tumanlarida 2,5 %ni, Ishtixon tumanida 2,2%ni, Qo'shrabot va Payariq tumanlarida 2,1%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Samarqand shahrida 1,4%ni va Kattaqo'rg'on shahrida 1,3 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 42,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,9 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 21,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Kattaqo'rg'on shahrida (19,9 promilledan 24,4 promillega), Urgut (24,3 promilledan 27,4 promillega) va Ishtixon (21,7 promilledan 24,4 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgani kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman va shaharlar bo'yicha tug'ilganlar soni yanvar-iyun (kishi)

| | 2017 yil | | 2018 yil | |
|-------------------|---------------|----------------------------------|---------------|----------------------------------|
| | (kishi) | 1000 aholiga nisbatan (promille) | (kishi) | 1000 aholiga nisbatan (promille) |
| Viloyat | 38 247 | 21,0 | 42 514 | 22,9 |
| Samarqand sh. | 4 392 | 16,9 | 4 947 | 18,8 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 851 | 19,9 | 1 055 | 24,4 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqdaryo | 1 572 | 21,1 | 1 637 | 21,5 |
| Bulung'ur | 1 861 | 21,3 | 2 132 | 23,9 |
| Jomboy | 1 920 | 24,2 | 2 073 | 25,5 |
| Ishtixon | 2 558 | 21,7 | 2 946 | 24,4 |
| Kattaqo'rg'on | 2 599 | 20,3 | 2 822 | 21,7 |
| Qo'shrabot | 1 516 | 24,7 | 1 631 | 26,1 |
| Payariq | 2 913 | 25,0 | 3 249 | 18,9 |
| Pastdarg'om | 3 112 | 18,8 | 3 524 | 27,3 |
| Paxtachi | 1 519 | 22,4 | 1 715 | 20,9 |
| Samarqand | 2 523 | 21,4 | 2 674 | 22,3 |
| Narpay | 1 832 | 18,3 | 1 924 | 18,9 |
| Nurobod | 1 490 | 21,2 | 1 546 | 21,6 |
| Tayloq | 1 892 | 20,2 | 2 055 | 21,5 |
| Urgut | 5 697 | 24,3 | 65 84 | 27,4 |

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 7,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,4 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bulung'ur tumanida (4,0 promilledan 4,7 promillega), Ishtixon tumanida (3,7 promilledan 3,9 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Samarqand shahrida (5,5 promilledan 4,8 promillega), Jomboy tumanida (4,6 promilledan 4,0 promillega), Qo'shrabot (4,8 promilledan 4,2 promillega) va Payariq (4,9 promilledan 4,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
3,9 ming
kishi

Ayollar:
3,8 ming
kishi

Tumanlar va shaharlar bo'yicha o'lganlar soni yanvar-iyun (kishi)


| | 2017 yil | | 2018 yil | |
|-------------------|--------------|----------------------------------|--------------|----------------------------------|
| | (kishi) | 1000 aholiga nisbatan (promille) | (kishi) | 1000 aholiga nisbatan (promille) |
| Viloyat | 8 048 | 4,4 | 7 732 | 4,2 |
| Samarqand sh. | 1 424 | 5,5 | 1 274 | 4,8 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 238 | 5,6 | 224 | 5,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqdaryo | 327 | 4,4 | 313 | 4,1 |
| Bulung'ur | 348 | 4,0 | 422 | 4,7 |
| Jomboy | 367 | 4,6 | 329 | 4,0 |
| Ishtixon | 435 | 3,7 | 467 | 3,9 |
| Kattaqo'rg'on | 461 | 3,6 | 470 | 3,6 |
| Qo'shrabot | 297 | 4,8 | 262 | 4,2 |
| Payariq | 573 | 4,9 | 506 | 4,3 |
| Pastdarg'om | 678 | 4,1 | 651 | 3,9 |
| Paxtachi | 332 | 4,9 | 331 | 4,8 |
| Samarqand | 580 | 4,9 | 558 | 4,6 |
| Narpay | 406 | 4,0 | 391 | 3,8 |
| Nurobod | 295 | 4,2 | 301 | 4,2 |
| Tayloq | 361 | 3,9 | 357 | 3,7 |
| Urgut | 926 | 4,0 | 876 | 3,6 |

Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,7 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,7 % o'simtalardan, 5,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,4 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 14,3 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 306 nafarni tashkil etib, ularning 66,7 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,7 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,1 % tug'ma anomaliyalardan, 5,2 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,3 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 2,0 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 34,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 16,6 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 30,2 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
34,8 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 11,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (0,8 %), Samarqand tumanida (0,8 %), va Kattaqo'rg'on shahrida (0,7 %), aksincha kamayish Narpay (0,4 %) va Qo'shrabot (0,3%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tuman va shaharlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni yanvar-iyun (birlik)

| | Tuzilgan nikohlar | | |
|-------------------|-------------------|---------------|-----------------|
| | 2017 yil | 2018 yil | O'sish sur'ati: |
| Viloyat | 11 406 | 11 930 | 104,6 |
| Samarqand sh. | 1 062 | 1 297 | 122,1 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 261 | 295 | 113,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqdaryo | 491 | 528 | 107,5 |
| Bulung'ur | 479 | 543 | 113,4 |
| Jomboy | 547 | 591 | 108,0 |
| Ishtixon | 757 | 815 | 107,7 |
| Kattaqo'rg'on | 869 | 845 | 97,2 |
| Qo'shrabot | 331 | 328 | 99,1 |
| Payariq | 795 | 855 | 107,5 |
| Pastdarg'om | 1 154 | 1 146 | 99,3 |
| Paxtachi | 555 | 556 | 100,2 |
| Samarqand | 565 | 673 | 119,1 |
| Narpay | 618 | 588 | 95,1 |
| Nurobod | 384 | 395 | 102,9 |
| Tayloq | 648 | 565 | 87,2 |
| Urgut | 1 880 | 1 910 | 101,6 |

Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 1,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Payariq (0,4 %), Ishtixon (0,2 %), Pastdarg'om (0,2 %), tumanlariga va Kattaqo'rg'on shahrida (0,2%) to'g'ri kelmoqda.

Tuman va shaharlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni yanvar-iyun (birlik)

| | Nikohdan ajralishlar | | |
|-------------------|----------------------|-------------|-----------------|
| | 2017 yil | 2018 yil | O'sish sur'ati: |
| Viloyat | 1 835 | 1902 | 103,7 |
| Samarqand sh. | 547 | 497 | 90,9 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 63 | 72 | 114,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqdaryo | 66 | 69 | 104,5 |
| Bulung'ur | 82 | 74 | 90,2 |
| Jomboy | 71 | 71 | 100,0 |
| Ishtixon | 99 | 116 | 117,2 |
| Kattaqo'rg'on | 118 | 114 | 96,6 |
| Qo'shrabot | 42 | 43 | 102,4 |
| Payariq | 68 | 121 | 177,9 |
| Pastdarg'om | 114 | 157 | 137,7 |
| Paxtachi | 45 | 54 | 120,0 |
| Samarqand | 169 | 193 | 114,2 |
| Narpay | 66 | 82 | 124,2 |
| Nurobod | 40 | 43 | 107,5 |
| Tayloq | 83 | 63 | 75,9 |
| Urgut | 162 | 133 | 82,1 |

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida esa minus 2,7 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

| | 2017 yil yanvar-iyun | 2018 yil yanvar-iyun |
|-----------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 5,1 | 6,6 |
| Ko'chib ketganlar | 7,8 | 8,1 |
| Migratsiya saldosini | -2,7 | -1,5 |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Samarqand shahrida (minus 1,0 ming kishi), Paxtachi tumanida (minus 0,3 ming kishi) qayd etildi.

